

**TALABALARNI MAXMUD TOROBIY TIMSOLIDA XALQ OZODLIGI
YO'LIDAGI JASORATI XARBIY VATANPARVARLIK RUXIDA****Mamurov Ulug`bek**

Buxoro davlat universiteti xarbiy ta`lim fakulteti o`qituvchisi, zaxiradagi polkovnik

ANNOTATSIYA

Mahmud Torobiy (Buxoroning Torob qishlog'i - 1238) - Buxoroda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon (1238) rahbari.

Hunarmand oilasida tug'ilgan. G'alvirchilik bilan shug'ullangan, ayni paytda tabiblik ham qilgan. U kuchli nufuzga ega, tasavvuf g'oyalari bilan tanish shaxs bo'lgan. Buxoroda mo'g'ullarga qarshi boshlangan qo'zg'olonga mashhur ulamo Shamsuddin Mahbubiyning taklifi bilan rahbarlik qilgan. Buxoro atrofida mo'g'ullarga qarshi bo'lgan jangda halok bo'lgan. Qabri ustiga 13-asrda qurilgan daxma O'zbekiston mustaqillikka erishgach, qayta ta'mirlandi. Mahmud Torobiy haqida Oybek "Mahmud Torobiy" (1944) opera librettosi va dostonini, Asad Dilmurod "Mahmud Torobiy" (1998) tarixiy romanini yozgan. Buxoro viloyati Jondor shaharchasida haykal o'rnatilgan.

Kalit so'zlari: maxmud torobiy, xalq, xarbiy vatanparvarlik, jasorat

Odatda, «jasorat» deganda biz Vatan himoyasi yo'lida yoki turli ekstremistik qora kuchlarga qarshi kurashda favqulodda fidoyilik ko'rsatganlarni tushunamiz. Yurtboshimiz asarlarida esa insoniy jasoratning yangi bir talqini yaratilgan. Bu ma'naviy jasorat masalasidir.

To'g'ri, ma'naviyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan adabiyot, san'at, ilm-fan namoyandalari, islom va tasavvuf arboblari o'z kashfiyotlari, ezgu ish-amallari bilan mohiyatan ma'naviy jasorat egalari hisoblanadilar. Bu haqiqat ilmiy-ma'rifiy jihatdan Islom Karimov ta'limotiga asoslandi va keng muomalaga olib chiqildi. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» nomli kitobning «Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori» sarlavhali to'rtinchi bobining ikkinchi bo'limi, balki ushbu asarning yakuniy-xulosaviy mohiyatini anglatuvchi qismi **«Eng buyuk jasorat»** deb nomlangan. Unda eng buyuk jasorat nima va u qanday bo'lishi hikmatomuz fikrlar bilan asoslab berilgan.

«Yer yuzidagi barcha o'lmas obidalar, insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiki ulug' kashfiyot va ixtirolar, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahramonlik namunalari odamzodning aql-tafakkuri, salohiyati va ma'naviy jasorati mahsulidir. Shuning uchun ham bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat — bu ma'naviy jasorat, deb javob bersak, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'lamiz».

Bilamizki, I.Karimov shaxsiyati va ta'limoti o'zida baynalmilallik, ilg'or dunyo hamjamiyati bilan tenglashish harakatlari jihatidan o'ziga xoslik, olamshumulik kasb etadi. U buyuk ajdodlarimiz qatorida o'zga yurt va o'zga millatga mansub ulug' siymolar hayoti va ularning yaratmalarini ham bilish, o'rganish hamda o'rnatish, komil insoniy fazilatlarini shakllantirishda foydalanish masalasiga ham alohida e'tibor beradi. Muhimi, bunday ma'naviy jasorat sohiblari barkamollik ibrati va tarbiyasi uchun tayanch bo'ladigan asoslardir.

Yurtboshimiz antik davr yunon ilm-fanining «yuksak tafakkur va aql-zakovat timsoli bo'lib kelayotgan» faylasuf Platonning o'z ustozlari Suqrotning vafotidan so'ng katta qiyinchiliklar bilan, bor mol-mulkini sarflab Afina shahri yaqinida akademiya tashkil etganligini, bunday **chinakam ma'naviy jasorati** bilan yunon falsafasini, ilm-fan rivojini tanazzuldan asrab qolganligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Kitobda yana Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning bag'rida kamolga yetgan Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino,

Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi olimlar faoliyati ham qayd qilingan.

«Ulkan ma'naviy jasorat sohiblari bo'lgan bunday alloma zotlar, - deya ta'kidlanadi mazkur risolada, - **dunyoning qaeida yashamasin, ezgulik va ma'rifat yo'lida doimo odamlarga ibrat bo'lib kelgan**». Shuningdek, bunday ma'naviy jasorati bilan insoniyatga barkamollik o'rnagi bo'lib kelayotgan zotlar qatorida o'rta asrlarga mansub bo'lgan «astronomiya sohasidagi ilmiy kashfiyotlari uchun tazyiq va ta'qiblarga uchragan **Kopernik** hamda keyinchalik uning izidan borib, johil va aqidaparast ruhoniylar tomonidan o'tga tashlangan **Jordano Bruno**, qanchadan-qancha ta'na va malomatlarga giriftor etilgan **Galileo Galiley** kabi allomalarning jasoratida ham **haqiqatga sadoqat, e'tiqod uchun kurashning yorqin namunasi yaqqol namoyon bo'lganini ko'ramiz**», deya qayd etadi donishmand Yurtboshimiz.

Hindiston ozodligining ulkan arbobi, nomining ma'nosi «buyuk qalb egasi» degan nom olgan Mahatma Gandi ham qadimiy yurt rahnamosi, donishmand faylasuf va olim sifatida ma'naviy jasorat sohibidir. Prezidentimiz Mahatma Gandidek ulkan davlat arbobining donishmandlik va aql-tafakkur bilan yo'g'rilgan ma'naviy jasoratini qisqa satrlarda g'oyatda teran umumlashtirib bergan:

«**Butun umr oddiy va kamtarona, lekin ezgu g'oyalar yo'lida tinimsiz kurashib yashagan bu zotning falsafiy-siyosiy qarashlarida insoniyat uchun ibratli jihatlar ko'p. Jumladan, uning turli muammo va ziddiyatlarni kuch ishlatmasdan, tinch yo'l bilan hal qilishga oid fikrlari dunyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda, ijtimoiy hamkorlik masalasida bugun ham o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmasdan kelmoqda**», deyiladi o'sha manbada.

Mantiqan his qilamizki, qizil imperiya changalidan qutulib, o'zining siyosiy va ma'naviy mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston va uning erkparvar farzandlari uchun hind xalqini ingliz mustamlakasidan xalos etgan Mahatma Gandining jasoratli tajribalari ham ancha-muncha qadrligi bo'lgan. Islom Karimov xalqimiz o'z tarixi davomida sodir bo'lgan har qanday to'fon va suronlarni mardona yengib o'tishida unga ma'naviy jasorat tuyg'usi yordam berib kelayotganligini ijtimoiy salmoqdor umumlashma bilan ta'kidlaydi. Masalan, harbiy zafarlar, ulkan kashfiyotlar, ma'rifat mash'alini baland ko'tarib jaholatga qarshi chiqishga undagan, ilhomlantirgan beqiyos kuch ham ma'naviy jasorat ekani Prezidentimiz e'tiborida turadi.

«**Shu nuqtai nazardan qaraganda, - deya uqtiradi muallif, - Urganchni bosqinchilardan himoya qilishda bayroq tutib jon bergan Najmiddin Kubroning qahramonligida, dunyoni to'fondek bosgan Chingizxon qo'shiniga qarshi o'n bir yil muttasil mardona kurash olib borgan Jaloliddin Manguberding jangovar ruhida, yurtimizni istilochilardan ozod qilib, buyuk davlat barpo etgan Amir Temur bobomizning bunyodkorlik salohiyatida ham ma'naviy jasorat tuyg'usi buyuk va ustuvor ahamiyat kasb etgani shubhasiz, albatta**».

Bular kabi yuksak insoniy ulug'vorlik ideallari bo'lgan zotlar milliy istiqloq mafkurasi, komil inson tarbiyasi tizimida barkamollikning, ma'naviy jasoratning eng yorqin namunalari hisoblanadilar. Mana shunday ma'naviy jasorat sohiblari ekanliklari uchun ham Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurdek zotlarning sho'ro siyosati hukmron davrda nomlari va jasoratlari qatag'on qilingan edi. Chunki bu siymolar chinakam milliy vatanparvarlikning, erkin davlat bunyodkorligining, millat faxrining ramzi, asoschisi kabi mo'tabar tarixiy zotlardir.

Mahmud Torobiy qo'zg'oloni - Buxoroda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq harakati (1238). Harbiy rahbari - Mahmud Torobiy, g'oyaviy mafkurachisi - Shamsuddin Mahbubiy.

Chig'atoy ulusida mo'g'ullar istibdodi ostida ezilgan va zulmidan to'ygan mahalliy aholi qo'zg'olon ko'tarishga bir necha marta harakat qilgan. Buxorodan 20 km g'arbdagi Torob qishlog'i (hozirda Buxoro viloyati Jondor tumani hududi) da boshlangan qo'zg'olon bu kurashning cho'qqisi hisoblanadi. Torob qishlog'i va uning atrofidagi dehqonlar va hunarmandlar majlislarida o'zaro kengashib, mo'g'ullar zulmiga qarshi ochiq kurash boshlashga qaror qilganlar.

Qo'zg'olonchilar Mahmud Torobiy boshchiligida Buxoroga yurishdi va shahardagi Malik Sanjar qasri (1206 yilda Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari qurdirgan) ni egallab, uni o'zlariga qarorgoh qilib olishdi. Ular safiga ko'plab tarafdorlar va maslakdoshlar kelib qo'shilgan. Torobiyning opasi ham qo'zg'olonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, bu tabib va duoxon ayol o'z mardligi, kuch-g'ayrati, jasorati va dushmanga nafrati bilan qo'zg'olonchilar orasida alohida ajralib turgan.

Juvayniyning yozishicha, yirik tasavvuf shayxi va aqid ulamosi Shamsuddin Mahbubiy qo'zg'olonchilarning g'oyaviy rahnamosi sifatida qo'shin va xalq o'rtasida katta tashviqot ishlarini olib borgan. Ular mo'g'ul bosqinchilari va ular xizmatiga o'tgan mahalliy ma'murlarni o'ldirib, mol-mulkini beva-bechoralarga taqsimlab berishgan. Buxoro butunlay qo'zg'olonchilar qo'liga o'tgan. Mahmud Torobiy Robia saroyiga joylashib, sulton qilib ko'tarilgan, bosh sadr Burhoniddin uning talabi bilan Shamsuddin Mahbubiy shahar sadri etib tayinlagan.

Mo'g'ul qo'shinlari va bosqinchilari bu paytda Karmanaga qochib, shoshilinch kuch to'play boshlaganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Karmanadan yuborilgan mo'g'ul qo'shinlari Buxoro atrofida tormor keltirilgan; jangda 10 ming mo'g'ul askari o'ldirilgan. Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni quvib, Karmanagacha borganlar. Biroq bu jangda Mahmud Torobiy va Shamsuddin Mahbubiy ham halok bo'lishgan. Qo'zg'olonga Mahmud Torobiyning 2 ukasi: Muhammad va Ali rahbarlik qilganlar. Mo'g'ullar ularga qarshi Eldiz No'yon va Chekan Qurchi boshliq yangi kuchlarni tashlashgan. Karmana yaqinidagi Raboti Malik (hozirgi Navoiy tumani markazi Malik rabot)da bo'lgan shiddatli jangda qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchragan, ulardan 20 ming kishi, jumladan, Muhammad hamda Ali ham halok bo'lgan. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Mo'g'ullar Buxoroga kirib, shahar va uning atrofidagi kishilarni talashga va o'ldirishga kirishgan. Xo'jandda turgan Maxmud Yalavochning bu yerga kelishi bilan Buxorodagi qirg'in to'xtatilgan. U talangan va vayron etilgan shahardan hech qanday soliq yig'ib bo'lmasligiga Chig'atoy ishontira olgan.

Mahmud Torobiy qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchrasa ham, u izsiz ketmagan. Mo'g'ul ma'murlari endilikda mahalliy aholi bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lib, o'lpon va soliqlarni kamaytirishgan. Ma'lum muddat turli o'zboshimchaliklarga chek qo'yilgan. Chig'atoy ulusini mo'g'ul xoqon (qoon)lari nomidan boshqargan Mahmud Yalavoch va uning o'g'li Mas'ud Yalavoch bu paytda ham xoqonlar manfaatini ko'zlaydigan, ham mahalliy xalqqa xayrixoh nozik siyosatni yuritishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://yandex.ru/search/?text=MAXMUD+TOROBIY+TIMSOLIDA+XALQ+OZODLIGI+YO%60LIDAGI+JASORATI+XARBIY+VATANPARVARLIK+&lr=101425&clid=2413805-512&win=493>
2. <https://uzhurriyat.uz/2016/09/20/ma-naviy-jasorat-ibrati/>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmud_Torobiy_qo'zg'oloni
4. <https://uzhurriyat.uz/2016/09/20/ma-naviy-jasorat-ibrati/>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmud_Torobiy_qo'zg'oloni
6. <https://uz.everaoh.com/tashqi-korinishdagi-odamning-xarakteri/>